

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

O'zbekiston xalq shoiri
Zulfiya tavalludining 100 yilligi

*D'oslar, ardog'lar
nehm tashakkur,
Asli, Sis – o'stobim,
men siyosiman.
Tonglaringis bulsin
dorilomon, har,
Baxtim shul – o'sbekning
Zulfiyasiman.*

FARZANDLARI SOG'LOM YURT

Prezidentimiz Islom Karimov raisligida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari o'tgan yili Jamg'arma tomonidan amalga oshirilgan ishlar, uning faoliyatini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish masalalari xususida atroflicha fikr yuritdi.

E'tirof etish kerakki, O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutmoqda. Jamg'arma tashkil etilganidan buyon mamlakatimizda 1700 dan ziyod sport obyektlari qurilgan bo'lsa, o'tgan yilda ham bolalar sporti inshootlari, musiqa va san'at maktablarini barpo etish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari izchil davom ettirilib, 115 ta bolalar sporti obyekti, 48 ta bolalar musiqa va san'at maktabi bunyod etildi. Ular zamonaviy sport jihozlari va anjomlari bilan ta'minlandi. Majlisda mazkur majmualardan foydalanish samaradorligini oshirish, bolalarni, ayniqsa, qizlarni sportga yanada kengroq jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Quvonarlisi shundaki, bugun mamlakatimizda 2 milliondan ziyod bola sportning 30 turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Ta'kidlash joizki, sportchilarimizning g'alabalari sportni keng ommalashtirishda muhim o'rin tutadi. Yig'ilishda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, professional sportchilarni tayyorlash va xalqaro musobaqalarda ishtirokini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

– Har bir sport turi uchun maxsus majmua bo'lishi kerak. Shu maqsadda barcha viloyatlarda xalqaro toifadagi sport ustalari tayyorlaydigan majmualar barpo etish zarur. Ularga eng malakali murabbiylarni, kerak bo'lsa, xorijdan mutaxassislarni jalb etish, sporti rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish lozim, – dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rib chiqilib, vazifalar belgilab olindi.

Jamshid MATYOQUBOV

Respublikamiz umumta'lim maktablarida sevimli
shoiramiz Zulfiya tavalludi keng nishonlanmoqda.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
274-umumta'lim maktabida ham «She'r tinglab, she'r
tuzib, she'rlarda qoldim» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

(2-bet)

BU BOG'LAR BIR BOG'LAR BO'LADI HALI...

NAFIS TUYG'ULAR KUYCHISI

Sevgi va sadoqat timsoli sifatida tilga olinadigan Zulfiya ISROILOVA hayoti va ijodi haqida gap borganda, uning nafis kechinmalar kuychisi ekanligini aytib o'tish o'rinlidir. Shoiraning bir o'zbek ayoli uchun ibrat bo'ladigan hayot yo'li bor.

Ayni kunlarda respublikamiz ta'lim muassasalarida uning tavallud kuniga bag'ishlangan adabiy kechalar, davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabida «Nafis tuyg'ular kuychisi» mavzusida bo'lib o'tdi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Feruza Soipova boshchiligidagi tashkillashtirilgan mazkur kechada 9-sinf o'quvchilari shoirani ijodidan namunalari, «Zaynab va Omon» librettosi asosida sahna ko'rinishi ijro etishdi. Ayniqsa, maktab o'quvchilari Shamsiddin Omonov, Sarvinov Shavkatova, Abdulaziz Umrboyev, Salohiddin Ibragimov, Shahodat Omonova, Muzaffar Toshmurodov, Madina O'rolova, Sabogul Begimova, Noila Ravshanova, Diyor Abduvaliyev hamda Gulhayo Abdusalomovanning mahorati ijrosi yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi. Zulfiya ijodiga bag'ishlangan ushbu tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.



Har yili novdalarni g'unchalar bezamoqqa tutingan bahorning ilk kunlarida xalqimizning sevimli shoirasi Zulfiya tavalludi joylarda keng nishonlanadi.

MUNOSIB TUHFA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori xalqimiz tomonidan qizg'in kutib olindi.

Kuni kecha «Yoshlar ijod saroyi»da O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ko'magida shoirani Zulfiya xonim hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlab yaratilgan zulfiyaxonim.uz veb-saytinin taqdimoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi raisi Elmira Basitxanova so'zga chiqib, shoiraning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish, saytni yaratilishi nechog'li ahamiyatga ega ekanligini hamda bugungi yoshlarimiz, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib ko'rilgan adabiyot, madaniyat, ta'lim, sport va boshqa sohalarida yuqori natijalarga erishgan, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega qizlarimiz, albatta, jahon minbarlarini zabt etishlariga Prezidentimiz katta umid va ishonch bildirayotganligini ta'kidladi.

Saytning o'zbek, rus, ingliz tillarida yaratilishida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining salohiyatidan samarali foydalanildi. zulfiyaxonim.uz sayti o'zbek adabiyoti ixlosmandlariga, yurtimizning barcha yoshlari va keng ommaga mo'ljallangan.



Sayt 10 bo'lim, 20 rukndan iborat bo'lib, unda 1000 ga yaqin ma'lumotlar, shoirani she'rlarining matnlari, audio va video matnlar, 100 dan ortiq fotosuratlar joylashtirilgan.

Shoirani qalamiga mansub she'rlarning yosh ijrochilar va san'at ustalari ijrosida kuylanishi hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining chiqishlari yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashdi.

Nodira NAZAROVA

Yurtimizdagi ko'plab bilim maskanlarida muhim sanalarni esda qolarli qilib o'tkazish borasida katta tajriba to'plangan.

Muhtarama Ulug'ova uzoq yillik ustoz-shogirdlik davrida opadan o'rganganlari, ko'rgan mehlari haqida to'liqlanib gapirdilar. Tajribali pedagog, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilobar Qo'chqorova tashkillashtirgan mazkur anjumanda Umida Abduzaimova, Rustam Musurmon, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ham ishtirok etib, o'z ijod namunalari bilan o'qib berdilar.

Anjumanni kuzatar ekanman, Muhtarama opa aytgan bir gap bot-bot yodimga tushaverdi. O'tgan asrning o'ttizinchi yillari boshida shoiraning ilk kitobiga ko'zi tushgan alloma shoirimiz Mirtemir domla adabiyotimizga chaqnoq bir yulduz kirib keldi, deb e'tirof etgan ekanlar. Bu yulduz shu'lasi uzoq yillar porlab turishiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Yusuf ABDULLAYEV

SHE'R TINGLAB...

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida Zulfiya tavalludiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi.



N. SULTONOV
olgan suratlar

Jumladan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mahmuda Valiyeva boshchiligidagi 5-«A» sinfning «Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman» mavzusidagi adabiy kechasida shoirlar Umida Abduzaimova va Shukur Qurbon mehmon bo'lishdi.

«She'r tinglab, she'r tuzib, she'rlarda qoldim» mavzusida tashkillashtirilgan navbatdagi tadbirda 4-«B» sinf o'quvchilari o'zlarining badiiy chiqishlari bilan yig'ilganlar qalbida shoirani ijodiga bo'lgan muhabbatni yanada oshirdi. Otabek Abdurahimov ijodkorning «Bahor»ini ifodali o'qidi. Alibek Do'stov va Durdona Tohirova ijrosidagi sahna ko'rinishida Hamid Olimjon bilan Zulfiyaning sof muhabbatini ko'rasiz. Javlon Rustamov, Samandar Saidrahimov, Bohirjon Rahmatjonov hamda Ziyoda Akromova, Habiba Rixsiboyeva raqslaridan bahorning iliq nafasi, nafis chechaklar ifori taralgandek, go'yo...

Tadbir yakunida sinf rahbari Dilobar Xojayeva o'quvchilarining mahorati ijrolari uchun Zulfiyaning yangi nashrdan chiqqan «Bahor keldi seni so'roqlab» to'plami bilan taqdirladi.

Nurbek NURALI o'g'li

YANA O'RIK GULLARIGA KO'MILDI OLAM

Yaqinda poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 305-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan «Zulfiya – tinchlik kuychisi» she'riy-badiiy kecha o'tkazildi. Tadbirda shoiraning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, uning adabiy merosi va yoshlarga o'rnatgan hayoti haqidagi ma'lumotlar taqdim etildi. Pokiza To'xtayeva, Muxlisa Fozilova, Abduqodir Jabboraliyev, Sug'diyona Ahatova va Xushnud Yo'ldoshevlar shoirani she'rlaridan ifodali o'qib berdilar. Ayniqsa, sahna ko'rinishida 8-sinf o'quvchisi Aziza Saidaliyevaning Zulfiya roli ijrosi tadbir qatnashchilari e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Alisher FAYZULLAYEV

Poytaxtimizdagi 171-umumta'lim

CHAQNOQ YULDUZ SHU'LASI

maktabi ham ana shunday o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan bilim maskanlaridan biri hisoblanadi. Kuni kecha «Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman» shiori ostida o'tkazilgan navbatdagi tadbir ham barcha ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Shoirani bilan bir mahallada yashagan shifokor Dilfuza G'ulomovaning go'zal xotiralari, taniqli jurnalist Rahima Shomansurova, shoirani



Tong yulduzi SHOIRA IZDOSHLARI

•• Mamlakatimizda har bahorni shoira Zulfiya tavallud topgan kunni nishonlash bilan kutib olish yaxshi an'anaga aylangan.

Zero, shoiraning butun hayoti, ijodi, shogirdlariga mehr-u muhabbati tong nuriday musaffo vafo-sadoqatidan dalolatdir.

Bugun yurtimizda qiz o'stirayotgan aksariyat ota-onalar farzandining Zulfiyaxonimga munosib voris, ma'naviy izdosh bo'lishini istashadi. Biz bu yo'lda faqat a'lo baholarga o'qisak, bilimimizni shirish yo'lida tinimsiz izlansakina xalqimiz sevgan shoiraga munosib izdosh bo'lamiz.

Sarvinov KOMILOVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi

AJDODLAR MEROSI - KELAJAK POYDEVORI

Buxoro viloyati, Qorako'l tuman Xalq ta'limi hamda «Kamolot» YOIH tuman Kengashi bilan hamkorlikda joriy yilning 5-fevralidan 12-fevralga qadar tumandagi barcha umumta'lim maktablarida «Ajdodlar merosi – kelajak poydevori» respublika ko'rik-tanlovining tuman hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

Ushbu ko'rik-tanlovda o'quvchilarga Vatanimiz, qolaversa, o'zlari istiqomat qiladigan hudud tarixiga oid ma'lumotlar, urf-odatlar, etnografiya, toponomikaga oid shartlar berildi. Final bosqichida g'olibni aniqlash hay'at a'zolaridan katta mas'uliyat talab qildi. Ko'rik-tanlovning hududiy bosqichida qatnashgan 1-, 5-, 18-, 19-, 30-, 31-, 34-, 46-umumta'lim maktabi jamoalari

chiqishlari tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rishganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, o'quvchilarning milliy qo'shiq va laparlar, aytishuv, raqslar ijrosi hakamlar va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

1-, 5-, 19-, 31-, 34-ta'lim muassasasi jamoalari 25-fevralda bo'lib o'tgan tanlovning tuman final bosqichida ishtirok etishdi.

Bugungi «Axborot asri» deb nom olgan davr har bir pedagogdan «O'quvchi muvaffaqiyati – o'qituvchi ishlashida» shiori ostida mehnat qilishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, tarix fani o'qituvchilaridan yurtimiz va jahonda sodir bo'layotgan voqealarni o'z vaqtida xolisona yetkazish, o'tmish va bugungi kun bilan bog'liqlikda qiyoslab o'rgatishni talab etadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari-yu tarix haqiqati bilan qurollantirishimiz lozim.

...Qo'ng'iroq chalinib, o'quvchilar sinfxonalariga kirib ketishdi. Dars boshlandi. Qirq besh daqiqadan so'ng maktab yo'lagi o'quvchilarning g'ala-g'ovuri bilan to'ldi.

Ular «Ustoz, darsingiz zo'r bo'ldi!» deya chug'urlashib, ustozni atrofni o'rab olishdi. Bu muallim shu kunlarda bo'lib o'tgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovi viloyat bosqichi ishtirokchisi Yodgor Azimovdir.

Tanlovda meni g'olib deb e'lon qilishganida, bir zumda ko'z o'ngimdan ustoz-bobomning nuroniy chehresi, doimo takrorlaydigan «Bilim – barcha yutuqlarning kaliti», degan so'zlari qulog'imda jaranglaganday bo'ldi. Ana shunday pallada biz o'qituvchilar uchun bugungi kunda yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlarni ko'rib, ko'nglimda hech qanday boylik bilan o'lchab ado qilib bo'lmaydigan minnatdorlik hissi paydo bo'ldi, – deydi tanlov g'olibi.

Ustoz G'ijduvon tumanidagi 8-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatida ish boshlaganiga ham mana 10 yildan oshibdi. Uning o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlari zaminida maskanda «Ustoz-shogird» an'analarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ustozlar o'giti hamda sog'lom raqobat muhitining yaratilganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Aziz dugonalar, oramizda Zulfiyaxonim nomidagi Davlat mukofotiga

sazovor bo'lishni orzu qiladigan, unga erishish uchun o'zini har jabhada sinab ko'rayotgan qizlar juda ko'p.

1-mart kuni el ardoqlagan shoiraning 100 yilligi keng nishonlandi. OAV orqali Zulfiyaxonim bilan birga ijod qilgan, uning quvonch-u tashvishlariga sherik bo'lgan ko'plab ijodkorlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilmoqda. Hamkasblarining e'tiroficha, shoira har qanday sharoitda huzuriga kelgan insonlarni ochiq chehra bilan kutib olgan ekan.

Ayniqsa, bu insonning yosh ijodkorlardan o'zining kerakli maslahatlarini ayamay, ko'ngillarini cho'ktirmagani meni to'liqlantirib yubordi.

Men ham Zulfiyaxonimning ijodi bilan yanada chuqurroq tanishdim. O'sha kuni ustozimiz bilan birgalikda yurtimizdagi barcha ijodkor qizlar singari poytaxtimizdagi Zulfiya bog'iga borib, haykal poyiga gul qo'ydik. Bu kun shoiraning bog'i gullarga burkandi.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



Bu kabi ko'rik-tanlovlar yoshlarimiz ongida yurtimiz tarixi, ota-bobolarimiz merosini o'rganish va targ'ibot qilishda asos bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Dilnoza ERALIYEVA

«USTOZ, DARSINGIZ ZO'R BO'LDI!»



Bu – «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi»ga berilgan baho!

O'qituvchi dars jarayonida tarix darsiga qo'yiladigan zamonaviy talablar asosida, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni Vatanga muhabbat, shonli tariximizga ehtirom ruhida tarbiyalashga, tarixni ilmiy, xolisona o'rgatish, mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunda Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kabi asarlari dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, u o'lkamizdagi tarixiy yodgorliklarni ko'rish, tanishish, shu bilan birgalikda, ular bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish maqsadida sayohatlar uyushtiradi. O'z ustida tinimsiz

izlanadigan muallim o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida maskanda «Yosh tarixchilar» to'garagini boshqaradi. Ahamiyatli, ustoz to'garak a'zolari bilan birgalikda «O'lkamizdagi joy nomlari», «Qadimgi dunyo tarixiga oid atamalar» kabi bir qator qo'llanmalar yaratdi. Uning muvaffaqiyatlaridan yana biri, yaqinda o'tkazilgan «Prezident asarlari bilimdoni» ko'rik-tanlovida shogirdi Muzrob Muxtorov faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Ustoz faoliyati bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ko'nglimizdan ushbu satrlar ko'chdi:

**Qalbi ezgulikka to'la, limmo-lim,
Ko'kka yo'lladingiz baland parvozim.
Hamisha menga yor Siz bergan ta'lim,
Otamday ulug'im – aziz Ustozim!**

OLMOS

O'G'ILLOY OPANING MAKTABI

Hayotda shunday insonlar borki, ular haqida to'lib-toshib gapirg'ing kelaveradi. Bunday insonlarning xayrli ishlari ibratga arzigulik. Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz ham shunday kishilar sirasidan.

Mo'jazgina qishloq maktabi hovlisida sahardan kuymalanib yurgan O'g'illoy opaning o'zi. Hamma shunday ataydigan opaning asli ismi O'g'ilbush bo'lib, hozirda Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 62-umumta'lim maktabi direktori. Umrining salkam qirq yilini o'qituvchilikka bag'ishlagan ustoz hayotini maktab, o'quvchilarsiz tasavvur qilolmaydi. Talabchan rahbar uslubiy birlashma yig'ilishlarini muntazam nazorat qilib boradi, tashkiliy ishlardan vaqt topildi deguncha yosh mutaxassislarining dars mashg'ulotlari tahlili bilan shug'ullanadi.

O'g'ilbush G'oziyeva, mana 33 yildirki, o'zi o'qigan maskanda faoliyat yuritib kelmoqda. O'tgan yillar davomida erishgan yutuqlarida ustozlari Sanobar opa Ubaydullayeva, Tursunoy Sultonova, Anvar aka Mirboboyev, Shirin Davlatova, Lutfiya opa Yo'ldoshevaning yo'l-yo'riqlarini asos deb biladi.

Bugungi kunda ta'lim maskanida 13 ta fan va sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar bunda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishayotgan ekan. Opa o'quvchilaridan Shahzod Rahmatullayev, Do'stim Qurbonaliyevning o'tgan yilgi viloyat birinchiligida kurash bo'yicha 3-o'rinni egallaganini to'liqlanib gapirdi. Yaqinda bo'lib o'tgan fan olimpiadasida



9-sinf o'quvchilarining ijtimoiy fanlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishganini ta'kidlaganida, ustozning ko'zlarida nur portladi.

Qachonki bu maktab haqida gap ketsa, atrofdagilar «O'g'illoy opaning maktabi», deya faxrlanib qo'yishadi. Chunki opa maktabdagi barcha o'quvchilarni o'zining farzandi, deb biladi. Ularning yutug'idan quvonadi, muammolarini esa hal qilishga harakat qiladi.

Bilim maskanidan qaytar ekanmiz, tajribali ta'lim fidoyisi timsolidagi yurtimiz kelajagini ko'rdik.

Nurbek QIDIRALIYEV



HAVAS QILSA ARZIYDI

O'zbekim qizlari o'zlarining go'zalligi, ibo-hayosidan tashqari kasb-hunarga bo'lgan e'tibori bilan ham ajralib turadi. Ular o'zlariga ibrat qilib olgan onasi, ustozlari ortidan hunar sirlarini o'rganishga oshiqadi.

Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 1-iqtidorli bolalar maktabining 7-sinf o'quvchilari Shohsanam Xudoyberdiyeva va Mashhura Zulhaydarova ham ana shunday tinib-tinchimaydigan, oldiga qo'ygan maqsad sari intiladigan shijoatli qizlardan. Odob bobida havas qilsa arzigulik. Qizlar bo'sh vaqt topdi deguncha ustoz G. Qarshiboyeva bilan bichish-tikish, tasviriy san'at sirlarini o'rganib kelmoqda. «Kamalak yulduzlari» respublika bolalar ijodiyot festivalining viloyat bosqichida tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha ishtirok etgan iste'dod egalari: «Bu tanlovda biz nafaqat bellashdik, balki do'stlar ortirib, ushbu yo'nalishda ko'proq izlanish lozimligini yana bir bor his etdik», deyishdi.

Mashhura maskanda «Kamolot» YOIH tomonidan tashkil etilgan «G'azalxon yoshligim» tanlovida 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. Shohsanam esa o'tgan hafta bo'lib o'tgan «Giyohvandlikka qarshi kurashda bellashamiz» insholar tanlovida 1-o'rinni egalladi.

Bugun Shohsanam ona tili fanidan, Mashhura esa tarixdan «Bilimlar bellashuvi»ning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko'rmoqda. Ha, qizlar kamolidan ko'ngil sarbaland.

Xurshida MIRKOMIL qizi

DILFUZANING UNYOSI

Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan qiz Dilfuza Otamirzayeva Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi.

Yoshligida qo'lidan qalamni qo'ymasdan turli tasvirlarni chizishga harakat qilgan qizaloq maktabda ustoz Farida Qayumova rahbarligida tasviriy san'at sirlarini o'rgana boshladi. Dilfuza maktabda o'tkaziladigan bir qancha tanlovlarda ishtirok etib, o'zini sinab ko'rdi. «Yong'inga qarshi kurash» oyilgida faol ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egalladi. U rasm chizish bilan birga turli hayvonlar shaklini yasay olishi, haykaltaroshlik bo'yicha ham iqtidori borligini ko'rsatdi. Iste'dod egasining plastilindan yasagan ishlari barchani hayron qoldirdi.



O'tgan yil Dilfuza uchun imtihon yili bo'ldi. Namangan viloyatida o'tkazilgan «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalidagi ishtiroki uni o'z ustida ko'proq ishlashga undadi. Shu bilan birga, «Mustaqillik – o'quvchilar nigohida» rasmlar tanlovining respublika bosqichida istiqbolimiz aks etgan rasmlari yuqori baholanib, munosib taqdirlandi.

Dilfuzaning kelajakdan umidlari ko'p, u malakali rassom-dizayner bo'lish niyatida.

Nozima QUDRAT qizi

Poytaxtimizning V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi ostonasidan kirib borar ekanman, uzoqdan «Tanovor» qo'shiq'i elas-elas eshitildi. Yuraklarni larzaga soluvchi bu mumtoz qo'shiq ijrochisi bilan qiziqdim. U shu bilim dargohining 7-sinfida tahsil olayotgan Sevara Jo'rayeva ekan.

MUMTOZ QO'SHIQ SHAYDOSI

– O'zbek milliy qo'shiqchilik yo'nalishi meni bolaligimdan o'ziga maftun etgan. Bugungi kunda ustozlarim Nasiba Sattorova hamda Zamira Rahmatullayevadan milliy mumtoz qo'shiqchilik san'ati sirlarini qunt bilan o'rganmoqdaman, – deydi Sevara.

U bilim maskanida tashkil etilgan «Meros» dastasi a'zosi. 2013-yilda Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan yoshlar ko'rik-tanlovida dasta jamoasi bilan ishtirok etgan Sevara o'zbek xalq laparlari hamda yakkaxon qo'shiqlarini ijro etib, tomoshabinlar mehrini qozondi va Gran-pri sohibi bo'ldi.

Asli farg'onalik bo'lgan yosh xonanda kelajakda mumtoz qo'shiqchilik san'ati durdonalarini ijro etib, tengdoshlari qatori O'zbekiston sharafini xalqaro miqyosda yanada ulug'lashni niyat qilgan.

Muhabbat XO'JAMURODOVA



SPRING HAS COME

(Bahor keldi)

Lesson 25

Days get longer and warmer in the spring. There are new leaves on the trees. Flowers begin to grow. Rain makes the grass green and helps the plants grow.

Spring is the time of new life. Nature puts on new clothes in many colors – red, yellow, blue, white and purple.

Birds build nests in the spring. Many baby animals appear. People like to make gardens and farmers plant crops in the fields.

New words:

Leaf (pl. leaves) – barg (barglar)

Nest – in, uya

Appear – paydo bo'lmoq

Crop – hosil, ekin

Field – dala, ekinzor

Exercises

A. Find the missing adjectives in the reading (Yuqoridagi matndan foydalanib, quyida tushirib qoldirilgan sifatlarni to'ldiring).

1. Days get _____ and _____ in the spring.
2. There are _____ leaves.
3. Clothes in _____ colors.

B. Paragraph one says:

- _____ 1. Spring is a time of growing flowers and plants.
- _____ 2. Rain gets warmer in the spring.
- _____ 3. Flowers help plants grow.

C. Paragraph three says:

- _____ 1. Baby animals build nests.
- _____ 2. Birds build nests in the fields.
- _____ 3. People plant gardens.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

SPRING WORD SEARCH

Can you find all these words?

Blossom, daffodil, green, growth, melting, puddle, rainbow, raindrop, seeds, sunshine, tulips, umbrella.



d	s	u	n	s	h	i	n	e	p
a	g	m	w	m	s	m	r	r	b
f	r	b	i	c	e	e	a	a	l
f	o	r	l	g	e	l	i	i	o
o	w	e	b	r	d	t	n	n	s
d	t	l	q	e	s	i	b	d	s
i	h	l	s	e	h	n	o	r	o
l	m	a	v	n	f	g	w	o	m
p	u	d	d	l	e	n	i	p	z
t	u	l	i	p	s	z	l	s	o



Umida UMAROVA

RIDDLES

(Topishmoqlar)



What teachers
without talking?



What has lots of
eyes but never sees?

TONGUE TWISTERS

(Tez aytishlar)

I like

I like my Bunny.
Bears like honey.

Girls like cats.
Cats like rats.

Boys like dogs.
Storks like frogs.

Mice like cheese.
Sparrows like peas.

Owls like mice.
I like rice.

Birds like grain.
Say it all again!

Ra'no QO'CHQOROVA,
Guliston shahridagi 12-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi

SPRING

(Bahor)

Spring is here.
Spring is here.
Goodbye, snow.
Flowers grow

Birds and bees
Leaves on trees
Sing the songs
Hello, spring.





Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
54-umumta'lim maktabi o'quvchisi

CHOOSE...

(Saralang...)

Separate these words into the leaves:

Bee, butterfly, tulip, rose, snowdrop, daffodil, violet, ant, dragonfly, lady-bird.



Ma'mura MAMADINOVA,
Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumanidagi
«Farg'ona» qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji 2-bosqich o'quvchisi

BAHOR BILAN QIZLAR EGIZAK

Ko'klam nafasi o'zining betakror tarovati-yu uyg'oqligi, saxovati-yu jo'shqinligi bilan dillarni quvontirsa, qizlarimiz beqiyos go'zalligi, nazokati-yu nafosati bilan ko'zlarni quvnatadi. Ayniqsa, she'riyatga oshufta dillarning beg'ubor qalbidan to'kilayotgan his-hayajonli misralar

ko'klamni sog'ingan yuraklarni nurlantiradi, bahoriy kayfiyat ulashadi.

Qizlarimizning Vatan, Ona, Tinchlik, Bahor haqidagi ijod namunalaridan jamlangan ushbu she'riy guldasta qalbingizga bahoriy ilqlik olib kirs, ajabmas.

ONAJONIM

Farzandim deb yonib yashaydi,
U borki, munavvar bu olam.
Men uchun dunyoda eng aziz,
Eng ulug' insonim bu – onam!

Beshigimni tebratgan ulug',
Onajonim mening borimdir.
Alla aytib boshim silagan,
Yorug' kunim qalb bahorimdir.

U mehr bog'ining bog'boni,
Oftobdek issiqdir jamoli.
Mol-dunyo, shon-shavkat so'ramas,
Orzusi – farzandlar kamoli.

Roziyaxon BAHODIRXONOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi
18-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

BOYCHECHAK

Boychechagim, boychechak,
Gullarning malikasi.
Bunchalar beg'uborsan,
Ko'klamoyning erkasi.

Ayt-chi, go'zal boychechak,
Bahor sening onangmi?
Yoningda yashnab turgan,
Lola sening xolangmi?

Do'st bo'laylik bir umr,
Boychechak, yonimda qol.
Go'zallikka burkansin,
Dala, qirni qamrab ol.

Nozima UMARQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
1-IDUMning 9-«A» sinf
o'quvchisi

BUVIMNING NASIHATI

Yurtimiz tinch, osuda,
Qadriga yetgin, bolam.
Uni sevib, ardoqlab,
Hur, obod etgin, bolam.

Ota-onang, ustozing,
Qilgan mehnatin oqla.
Ona yurtin, xalqingni,
Qalb to'rida ardoqla.

Ertasi porloq bo'lsin,
Ravnaqiga hissang qo'sh.
Yaratish, yashnatishdek,
Ezgu maqsad bilan jo'sh!

Mehriniso QUDRATOVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
51-umumta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi

ZULFIYAXONIMGA

Vafo, sadoqatdan dilga yo'l ochgan,
Qalblarga beminnat mehrini sochgan,
Go'yo quyosh tafti yuziga ko'chgan,
Siz sabab har mahal baland parvozim,
Siz sabab baralla yangrar ovozim.

Shogirdlar kamolin o'ylab tun-u kun,
Halovat bilmasdan bag'rin etib xun,
Kelajak avlodlar shon-sha'ni uchun,
Baxsh etgan umrining bahor-u yozin,
Zulfiyaxonimdir mening ustozim.

Kim uchun dunyoda shuhrati aziz,
Kimgadir mol-dunyo, davlati laziz,
Sizga-chi, el-yurtning rahmati aziz,
Mudom baland erur Sizga e'zozim,
Zulfiyaxonimdir mening ustozim.

Insonga duch kelgay turfa xil yo'llar,
Gohi tog'lar oshsa, goh kezar cho'llar,
Ba'zan ta'qib etsa chaqmoqli yo'llar,
Pand bermaydi aslo aql tarozim,
Zulfiyaxonimdir mening ustozim!

Shohila NURMATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Dehqonobod tumanidagi
42-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

QALBIMDAGI MOHTOBIM

Buvijonim – oftobim,
Qalbimdagi mohtobim.
Sog'inganimda har on,
Entikaman siz tomon.

Menga nasihat qilar,
Yo'llarimni yoritlar.
Pandlari ibrat doim,
Yuzga kiring iloyim.

Parizoda SHAHOBIDDINOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod
tumanidagi 97-umumta'lim maktabining
8-«V» sinf o'quvchisi

Sanjar o'yindan
zerikdi. O'yinchoq quyovni uyning
burchagiga otdi-da, o'rnidan turdi. Hovliga
chiqdi. Opasi Shohista ko'rinmaydi. Qayerda,
xonasidamikin?

U eshikni asta
ochib, opasining xonasiga kirdi.
Shohista uning kirganini sezmad. Tizzasi
ustida bir nimani berilib tikib o'tirardi.

Sanjar opasini «vah» deb qo'rqitmoqchi bo'lib,
orqasidan mushuk yurish qilib keldi, ko'zi u
tikayotgan kashtaga tushib, to'xtab qoldi. Opasi
oq matoda mehr berib tushirayotgan gulni
Sanjar gulzorda ko'rgan edi.

– Opa, nima qilyapsiz? – so'radi u
tasvirdan ko'zini uzmay.

Shohista cho'chib, unga qaradi.

– Ha, senmisan? – dedi u tikayotgan
kashtasini orqasiga yashirmoqchi bo'lib.

– Nega yashiryapsiz? – ukasi xafa
bo'lganday, – tegmayman.

– Yo'q-yo'q, bor, o'yinchoq'ingni o'yna, senga
baribir ko'rsatmayman, – opasi uning yo'lini
to'sganday qo'lini uzatib.

– Tegmayman, deyapman-ku, – Sanjar unga
yolvorganday yaqinlashdi. – Gulzordagi gulni
tikyapsizmi?

– Ha, – dedi opasi Sanjarning tegmayman



SINFDOSHILAR G'ALABASI

Yaqinda Namangan shahrida kurash bo'yicha Respublika birinchiligi bo'lib o'tdi.

Qizlar o'rtasida kechgan keskin bellashuvlarda Mahliyo Yo'ldosheva 48 kg. vazn toifasida 40 nafar raqibidan ustun kelib, 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Fayzullo To'laboyev o'g'il bolalar o'rtasida 60 kg. vaznga ega 60 nafarga yaqin polvonlarni dog'da qoldirib, 1-o'rin sohibi bo'ldi. Qizig'i shundaki, bu ikkala g'olib Naman-gan viloyati, Yangi-qo'rg'on tumanidagi

Fayzullo To'laboyev joriy yilning 16-17-yanvar kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston birinchiligi kurash bo'yicha 1-o'ringa munosib topildi.

47-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilardir.

Zarkent qishlog'idagi mazkur ta'lim maskanida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Abdulhay Yoqubboyev tashkilotchiligi dzyudo va kurash

to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, Komiljon Bo'tayev va Husanboy To'raboyev murabbiyligida 50 nafar o'quvchi-yoshlar darsdan o'tgan vaqtlarida sport bilan shug'ullanishmoqda.

Mahliyo Yo'ldosheva o'tgan yilning mart oyida dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionatida 3-o'rinni egallab, aprel oyida Xorazmda 2-o'rin, 8-9-noyabr kunlari Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida 1-o'rin - oltin medal sohibi bo'ldi.

Bugun sizlarga ham dzyudo, ham



kurash to'garaklari faol ishtirokchilari ikki sinfdosh erishgan yutuqlari haqida hikoya qildik. To'garak a'zolarining yangi g'alabalari xususida navbatdagi sonlarimizda yana to'xtalishni istadik.

Muhammadsodiq ALIMOV

OYDINA OYDIN YO'LDA

Oydina Takirova Buxoro viloyatining Olot shahridagi Navro'z mahallasida istiqomat qiladi. Tumandagi 28-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi darsdan bo'sh vaqtlarida 20-bolalar va o'smirlar sport maktabining kurash to'garagiga qatnashib



Murabbiy Xayrullo Abdullayev shogirdiga sportning nozik sirlarini o'rgatar ekan, Oydinaning kelgusida malakali mutaxassis bo'lib, yurtimiz xotin-qizlari sportini rivojlantirishga katta foydasi tegishidan umid qiladi. Kurashchi o'tgan yilning sentabr oyida poytaxtda o'tkazilgan dzyudo bo'yicha Respublika birinchiligi bo'lib, yurtimiz xotin-qizlari sportini rivojlantirishga katta foydasi tegishidan umid qiladi. Kurashchi o'tgan yilning sentabr oyida poytaxtda o'tkazilgan dzyudo bo'yicha Respublika birinchiligi bo'lib, yurtimiz xotin-qizlari sportini rivojlantirishga katta foydasi tegishidan umid qiladi. Kurashchi o'tgan yilning sentabr oyida poytaxtda o'tkazilgan dzyudo bo'yicha Respublika birinchiligi bo'lib, yurtimiz xotin-qizlari sportini rivojlantirishga katta foydasi tegishidan umid qiladi.

N. JAVHAROVA

BIZNING DINAMOCHILAR

Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi 24-umumta'lim maktabida sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, muassasaning 4-sinfida ta'lim oladigan Asadbek Mustafokulov, 8-sinf o'quvchilari Umid Turdiqulov hamda Toshpo'lat O'rozaliyev futbol to'garagining faol a'zolaridan. Yosh futbolchilar shu kunga qadar ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi.



Zarnigor
MUSAYEVA

O'tgan yili Buxoro viloyatida o'tkazilgan "Sog'lom bola yili"ga bag'ishlangan O'zbekiston chempionatida Asadbek viloyat "Dinamo" futbol klubidan faol ishtirok etib, II darajali diplom bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, yosh futbolchi O'zbekiston Respublikasi Futbol federatsiyasi a'zosi J. Xonnazarov xotirasiga bag'ishlangan Qibray tumanida o'tkazilgan 15-Respublika turniri musobaqalarida 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

2014-yil avgust oyida 2001-2002-yilda tug'ilgan o'quvchilar o'rtasida yurtimiz mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlangan turnirda "Dinamo" klubi a'zolari Umid va Toshpo'lat 1-darajali diplom bilan taqdirlanishdi. Shuningdek, o'tgan yili G'azalkent shahrida o'tkazilgan Toshkent viloyati ochiq turnirida Toshpo'lat O'rozaliyev 1-o'rinni qo'lga kiritib, "Eng yaxshi to'purar" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

BELBOG'I MAHKAM ZAFAROBODLIK

Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabida ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Bugungi kunda muassasada darsdan tashqari tashkil etilgan 16 ta fan, badiiy va ijodiy to'garaklar barobarida 7 ta sport to'garaklari muntazam ishlab kelmoqda. 319 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan bu maskanda 161 nafar yoshlar sport to'garaklariga jalb qilingan. Ayniqsa, futbol va milliy kurash yo'nalishida sportchilar salmoqli natijalarga erishib kelmoqda. Hozirda maktab yosh futbolchilaridan Sherzod Abdug'ofurov hamda Baxtiyor Ochilov viloyat terma jamoasi tarkibiga nomzod. Milliy kurash to'garagi a'zolari Tilov Boboyev, O'tkir Murodov (3-sinf), Samandar Husenov, Behruz Aliboyev (4-sinf), Sherzod Shirinqulov, Mahmud Boboyev (8-sinf) hamda Rahimjon Oltunov (9-sinf) ustoz Abror Ismoilov murabbiyligida tuman va viloyat musobaqalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Jonibek Sultonov 2013-yilda Respublika ochiq turnirida 3-o'rinni egalladi. O'tgan yili viloyat birinchiligi 1-o'rin sohibi bo'ldi, 2-o'rin esa shu maktabning 8-sinf o'quvchisi Mahmud Boboyevga nasib etdi.

Zamonaviy talablar asosida jihozlangan sport zalida olib borilayotgan to'garakning navbatdagi mashg'ulot jarayonini kuzatar ekan, maktab rahbari Avaz aka Silliyev bu polvonlar o'zining o'quvchilari ekanligidan ich-ichidan mag'rurlanib qo'yadi. Vaqti kelib, jahon chempionlari shu maktabdan chiqsa, ne ajab?!

Shukrulla G'ULOMOV



SIZNING KITOB JAVONINGIZGA



Xalq orasida topishmoq, jumboq, matal, cho'pchak kabi terminlar bilan aytib kelingan topishmoq janri o'zbek xalq og'zaki ijodida qadim zamonlardan hozirgacha yashamoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmishda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli hodisalari haqidagi tushunchalarning ifodasi sifatida paydo bo'lgan.

Yaqinda «O'zbekiston» NMIUda bolalar uchun sermahsul ijod qilib kelayotgan Zahro Hasanovanning yangi – «Topishmoq va tez aytishlar» kitobi nashrdan chiqdi. Muallifning mazkur jamlanmasi yuqorida aytib o'tganimizdek siz aziz bolajonlarni topqirlik va zukkolikka undaydigan, qofiyadosh so'zlarni topishga o'rgatadigan rangli bezakli kitob bo'ldi. Undagi tez aytishlar nutqingizning aniq va ravon bo'lishiga, so'z boyligingizning oshishiga xizmat qiladi.

O'ylaymizki, «Topishmoq va tez aytishlar»dan o'zingizga manzur bo'lganlarini tezda yodlab olasiz va bu sizning eng yaxshi ko'rgan kitobingizga aylanib qoladi.

TOPISHMOQLAR

Qattiq, yumshoqdir jismim,
Xatoni o'chirgum jim.
Eng yaqin do'stim chizg'ich,
Meni derlar



Yashash joyi Afrika,
Bo'yni uzun va tikka...

TEZ AYTISHLAR

Muxxonada muzlagan
muzdekkina muzqaymoq.

Shirinning shirchoyiga
shiringina shirmoyon.

Zahro HASANOVA

«QUSH UYASI» SALATI

Kerakli masalliqalar: 3 dona pishirilgan tuxum oqi, 3 dona kartoshka, 200 gramm tovuq go'shti, tuz, mayonez, salat barglari, ko'katlar.

Qush tuxumlari uchun: 100 gramm qattiq pishloq, 3 dona tuxum sarig'i, shivit, mayonez, bir-ikkita sarimsoqpiyoz donachalari.

Kartoshkalar somoncha shaklida to'g'ralib, qizdirilgan yog'da pishirib olinadi va ikkiga ajratiladi. Pishirilgan tovuq go'shti, tuxum oqi ham somoncha shaklida to'g'raladi va mayonez bilan aralashtiriladi (sarig'i olib qo'yiladi).

Uyadagi tuxumlar: pishirilgan tuxum sarig'i, pishloq qirg'ichdan o'tkaziladi. Ko'katlar yaxshilab yuvilgach, o'rtacha kattalikda to'g'raladi. Sarimsoq mayda tishli qirg'ichdan o'tkazilgach, mayonez aralashtiriladi va yuqoridagi masalliqalarga qo'shiladi. Bu masalliq tuxum shaklida yumaloqlanadi.

Salat barglari kattaroq likopchaga terib chiqiladi, qush uyasi shaklida mayonezlangan tovuq go'shtili masalliq solinadi. Qovurilgan kartoshkaning qolgan qismini uya atrofiga asta-sekin yopishtirib chiqiladi. Uya markaziga «tuxumchalar» qo'yiladi. «Qush uyasi» salati tayyor.

Yaqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

2-mart 2015

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Yusuf
ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 48 450
Buyurtma – S 2268



Durdona AHMADOVA
Samarqand viloyatining
Pastdarg'om tumanidagi
52-umumta'lim
maktabining 3-sinf
o'quvchisi. Sinfdagi a'lochi
o'quvchilardan biri bo'lgan
bu qizaloq yetti yoshidan
beri 11-musiq va san'at
maktabi qoshida tashkil
etilgan raqs to'garagiga
qatnashadi.

RAQSGA TUSHIB BERAYMI

Jajji san'atsevar «Xorazmcha», «Buxorocha», «Kuy sehri» hamda «Kabutardek charx urib» raqslarini maromiga yetkazib ijro etadi. Uning nafis harakatlaridan bolalikning beg'ubor damlarini sog'inasiz. Durdona yosh bo'lsa-da, ilk g'alabani qozonishga ulgurd. U o'tgan yili bo'lib o'tgan «Kamalak yulduzlari» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Hali boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lgan iste'dod egasi raqsdan tashqari ajoyib ovoz sohibi hamdir. U ona Vatan, tinchlik, baxtli bolalik haqidagi qo'shiqlarni sevimli kuylaydi. Orzusi kelgusida respublika miqyosidagi tanlovlarda o'zini sinab ko'rish.

SH. SHUKUROVA,

X. SULAYMONOVA tayyorlashdi

RANGLARDA TABIAT AKSI



Muxlisa ABDUHAFIZOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 20-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf
o'quvchisi



Malohat SAIDALIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod
tumanidagi 1-internet o'quvchisi



Farangiz SOBIROVA,
Xorazm viloyati, Shovot
tumanidagi 25-umumta'lim
maktabining 3-sinf o'quvchisi